

This is not registered version of TotalDocConverter

Bir kimsaning nomi ko'...

U tug'ildi-yu, yig'lab yubordi.

B- Qanaqa dunyoga kelib qoldim-a? B deb hayron bo'lib, qotib-qotib yig'lardi. O'rab-chirmashdi. Onasi ko'krak tutdi. Baxtiga qarshi onasining ko'krak uchi yassi ekan, ema olmadi.

B- Shu ham ko'krak bo'ldi-yu, emmayman, B vag'illadi yana. Do'kondan rezina so'rg'ich opkelishib bo'yniga osib qo'yidilar. Sun'iy sutlardan emib asta-sekin ulg'aya boshladi. Lekin hech narsadan ko'ngli to'lmasdi. Otasi olib bergan ust-bosh goh katta, goh kichik. Onasi qilgan ovqatlar go'yo bemaza, beta'm edi. Kun bo'yi yuziga pashsha qo'nib oldidagi ovqatni yemasdan xarxasha qilib o'tiraverardi. Bechora ota-ona hayron edi. Axir "puf-puf"lab, hech kimga ishonmay shuncha avaylab qaragani bilan o'g'ilchasining ko'nglini topisholmasdi-da. Ba'zan otasining jahli chiqib do'pposlab tashlamoqchi bo'lardi-yu, onasi oraga tushardi:

B- Qo'ying, dadasi. Kattaraversa esi kirib yaxshi bo'lib qoladi, B derdi bolasining boshini qo'ltig'iga yashirib.

Maktabga bordi. U yerda ham o'qituvchilar bilan chiqisholmasdi. Darsdan qochardi.

-B Faqat mendan so'rashadi. Ataylab meni doskaga chiqarishadi. Menda qasdi bor, B derdi hinqillab yig'larkan. Sinfdoshlari bilan ham do'stlasha olmadi.

-B Mening ustimdan gapirib kulishadi. Meni ko'rolmaydi, B derdi onasiga ko'z yoshi qilib. Dastyor bo'lib qolgani uchun ota-onasi ba'zan-ba'zan buyurgan ishni ham yolchitmas edi. Birdan goh biqini, goh qorni og'rib qolardi. Ota-onasi qo'rqib do'xturma-do'xtur chopishardi.

B- Nega hamma kasal menga yopishadi? Nega boshqa bolalar kasal bo'lmaydi? B deb baqirib yig'lardi ukollardan bezor bo'lganidan. Rangi zahil, badani momiq paxtaday bo'lib o'sa boshladi. Maktabni ham bir amallab bitirdi. Otasi tanish-bilish qilib bir institutga kirgizib qo'ydi. Imtihonlarni pul bilan topshirib o'qidi. U yerda ham birovga el bo'lolmadi. Chaqimchilik qilardi.

-B Meni hammasi yomon ko'radi. O'zlari yomon, B derdi o'zicha kuyunib. Uyiga ta'tilga kelgan vaqtlarda qishlog'i ko'chalarida gerdayib yurardi. Hech kimga salom bermas edi. Umuman salom berishni o'ziga or bilardi.

-B Men katta shaharda o'qisam-u, bu qishloqilar menga salom berishmaydi...

Ishga kirdi. Tag'in g'urbat. "Oyligi kam. Ish ko'p. Odamlar yomon..."

O'ziga o'xshagan bitta-yarimtani yig'ib, boshliqlarning ustidan ig'vogarlik qilib, yumaloq xat yozishdi. Niyatiga yetolmagach, yana kuyunib yurdi:

-B Hech yerda haqiqat yo'q. Baliq boshidan sasigan...

Qari ota-onasini ham har kuni "Menga yaxshi sharoit yaratib bermadinglar, mening shunday qiynalib yurishimga sizlar aybdor" deb, ta'na qilaverib, kun bermasdi. Bechoralar unga kuya-kuya, izidan chopo-chopa, uni suyay-suyay o'zlari ham olamdan o'tib ketishdi. U esa bevafo dunyodan nolib yig'lab qolaverdi. So'ng tog'alari uni gulday bir qizga uylantirib qo'yishdi. Lekin xotini bilan uzoq yashamadi. Xarakterlari to'g'ri kelmaganmish.

-B Televizordagi qiziqchiga qarab tirjayadi. Ko'chadan kelgan tilamchiga non berardi, B deb xotinini yomonlab yurdi. Shu bilan qayta uylanolmadi. O'lg'iz yashadi. Qo'ni-qo'shnilar bilan sozi yo'q, suvi tinimasdi.

-B Bari g'iybatchi, bari meni ko'rolmaydigan odamlar...

Hamma uni ko'rsa qochadigan, aylanib o'tadigan bo'lib qoldi. Tog'alari uni ko'rgali qanday-qanday kelsa, ularga qarab janjal qilardi:

-B Qanday tog'asiz-e. Holimdan xabar olmaysiz. Og'ainlarda mehr-oqibat yo'q.

-B Sen o'zing ham bunday og'ainlarnikiga mehmon bo'lib borgin-da. Kelganlarni ochiq yuz bilan kutib olgin-da, B derdi tog'asi tanbeh berib.

-B Menga joni achishadigan yo'q. Hammalaring meni yomon ko'rasizlar. Nega meni hamma yomon ko'radi? B deb yig'lardi u. Mahallaga qo'shilmay qo'ydi. Hovlisining eshigini kirsam ham, chiqsam ham tanbalab yurardi. Nihoyat pensiyaga chiqdi. Pensiya beradigan joyga borib har kuni janjal qilardi.

-B Nega mening pensiya pulim kam? Nega urush veteranlariniki ko'p? Men ham davlatga ishlab berdim-ku...

-B Endi qaridingiz, musulmonchilik amallarini bajarib yuring, B deb mahalla imomi pandu-nasihat qilganiga pushaymon yedi.

-B Eshakdan yiqilib peshonam yerga tegmagan-u, endi nomoz o'qiyman deb boshimni yerga uramanmi? O'qiyvering, sizga kerak bo'lsa, B deb jerkib tashladi u.

To'y marakalarga ham bormay qo'ydi.

Borsa ham qovog'ini uyib:

-B Tuzuk ovqat qilishmagan, ko'proq bermadi, xasislar, B deb so'kinib qaytadi. Biron odam bilan qanday-qanday gaplashib qolsa ham, doim noligani-noligan:

-B Odamlar buzilib ketdi. Zamon buzilib ketdi. Hamma tomonda yo'qchilik. Yashash qiyin bo'lyapti...

Bora-bora hafaqon kasalligiga yo'liqdi. Vrachlar unga dori-darmon buyurishdi. U pisand qilmadi.

-B Fu-u. Dorilar achchiq, sassiq. Ukollar yoqmaydi. Do'xturlarning bilimi yo'q, B derdi injiqlanib. Ahvoli yomonlashavergach, ukollarni olishga, dorilarni kappalab yutishga majbur bo'ldi. Lekin dard zo'r keldi. Yiqitdi. Uni ko'rgali kelganlarni ko'rganda alamidan yana yig'ladi:

-B Nega? Nega men kasal bo'laman? Nega sizlar kasal bo'lmaysizlar?

Kunlardan bir kuni Azroil eshigini qoqdi. Ko'ziga ko'ringandan o'kirib yig'lab yubordi.

-B Yo'q. Noroziman. Nega endi faqat men o'lishim kerak? Nega boshqalar emas? Azroilda insof yo'q...

Jon taslim qilayotganda ham ancha vaqt talvasa qilib, lablari allanima deb pichirlay-pichirlay... uzildi bechora, noshukur banda.